

MAQOL JANRI VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Abdumalikova Mahliyo

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, 2-bosqich talabasi

abdumalikovamahliyo260@gmail.com

Aliqulova Feruza Abror qizi

O‘zDJTU, koreys filologiyasi kafedrası o‘qituvchisi

aliqulovaf1307@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada maqol janrining umumiy xususiyatlari, uning xalq og‘zaki ijodidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, o‘zbek va koreys tillaridagi maqollar o‘rganiladi. Ikkala xalqning maqollarida aks etgan dunyoqarash, axloqiy me‘yorlar, madaniy qadriyatlar tahlil qilinadi. Maqol janrining milliy tafakkurni ifodalashdagi roli hamda u orqali turli xalqlarning hayot tarzini, urf-odatlarini aks ettirish usullari yoritiladi. Shuningdek, o‘zbek va koreys maqollarining shakl va mazmun jihatdan qanchalik o‘xshash yoki farqli ekanligini ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, paremiografiya, maqol, etnolingvistika, madaniyatshunoslik, milliy qadriyatlar, ijtimoiy-tarixiy tajriba, lingvomadaniy tahlil

Inson umuminsoniy va milliy ijtimoiy-tarixiy tajribalarni o‘zida mujassam etgan til orqali dunyoni va o‘zini anglay oladi. O‘tgan yillar aks-sadolari, ajdodlarning bosib o‘tgan yo‘llari, quvonch-u shodliklari, aql-zakovat-u donishmandligi, hayot tajribalari va xulosalari bugungi kunda maqol, matal, ibora kabi xalq og‘zaki ijodi namunalarida o‘z aksini topadi. Aynan shu sababli maqol va matallar bugungi kunda folklorshunoslik va tilshunoslik sohalari bilan bir qatorda madaniyatshunoslik, etnolingvistika va etnografiya singari fan sohalarida ham keng tadqiq qilib kelinmoqda.

Maqollar ustida izlanish olib borar ekanmiz paremiologiya sohasiga murojaat qilishimiz shart. Paremiya yunoncha so‘z bo‘lib, chuqur ma’noli gap, hikmatli so‘z, ibora, maqol ma’nosini beradi. Xalq paremik ijodiyoti namunalarini to‘plash bilan esa paremiografiya shug‘ullanadi [1].

Maqollar aslida og‘zaki nutqda paydo bo‘lgan va bugungi kunda ham barcha yosh doirasida istalgan mavzuda keng qo‘llanib kelinadi. Oxunjon Safarov maqolning tinglovchiga ta’siri haqida shunday yozadi: “Bunday nutq tinglovchini befarq qoldirmaydi, uning his-tuyg‘ulariga tez ta’sir qilib, fikrini uyg‘otadi, adolatli xulosalarga kelishini va hukm chiqarishini ta’minlaydi”[2]. M.Qo‘shoqov esa bunga shunday ta’rif beradi: “Maqollar nutqqa chehradagi qora xoldek, uzukka qo‘yilgan ko‘zdek yarashadi” [3].

Bundan tashqari maqollar yozma asarlar tarkibida ham uchraydi. Ularning asarlar tarkibida qo‘llanishi, bir tomondan, ijodkor ko‘zda tutgan ma’noni yaqqolroq

ifodalashga yordam bersa, boshqa tomondan, shoir yoki yozuvchini xalqqa yaqinlashtiradi, asarning xalqchilligini taminlaydi.

Xalq maqollariga murojaat etganda, ulardagi tarixiylikni hisobga olish lozim. Chunki bugungi kunda nutqimizda ishlatilayotgan maqollarning ko'pchiligi o'tmishda yaratilganligi bilan xalq psixologiyasi, dunyoqarashidagi cheklanganliklar va ziddiyatlar aniq ifodasini topgan. Masalan, o'zbek xalq maqollaridan biri **“Boy boyga boqar, suv soyga oqar”** maqolini jamiyatning qaysi davrida va qanday sinf vakillari tomonidan aytilganligini anglash bir qarashda qiyin. Agar maqol mehnatkash xalqning nutqida qo'llanilgan bo'lsa, u shu sinf manfaatlariga xizmat qiladi yoki aksincha. Yoki koreys maqollaridan **“기운이 세면 소가 왕 노릇 할까”** maqolini ko'rib chiqsak. Maqolning tarjimasi – **Kuchi ko'p bo'lgani bilan sigir qirol bo'lolmaydi**. Maqolning mazmuni – qanchalik kuchli bo'lsa-da, aql va fahm-farosati bo'lmagan inson muvaffaqiyatga erisholmaydi. O'zbekcha muqobil varianti sifatida esa **“Aqli baxt topar, Baxt bilan taxt topar”**, **“Kuchiga ishongan – yiqilar, Aqliga ishongan – yiqitar”** maqollarini keltirishimiz mumkin. Agar tarjimadan kelib chiqadigan bo'lsak maqolni uzoq o'tmishda yaratilganligiga shubhamiz yo'q, albatta. Chunki unda ishlatilgan **“왕”** “qirol” so'zi uzoq o'tmishga oid. Demak, maqollardagi konkret sinfiy funktsiya ularning nutqda qo'llanish o'rniga qarab belgilanadi. Ammo maqollar qaysi davrda yaratilishidan qat'iy nazar, ular yana nutqqa qaytib faollashishi mumkin.

Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar bilan shartlangan holda maqollar mazmunida turli darajadagi o'zgarishlar – torayish yoki kengayishlar yuz beradi. Mana shu faktning o'ziyoq maqolning jamiyat hayoti, xalq turmushi bilan bevosita bog'lanishda ekanligini ko'rsatadi[4].

Maqollarda mantiq kuchi baland, fikr ishonarli bo'lgani uchun bahslashishga o'rin qolmaydi. Shu sababli maqollardan nutqning istalgan joyida, istalgan maqsadda foydalanish mumkin. Shunga qaramay, maqollar, matal yoki topishmoq umuman folklorning boshqa janrlariga nisbatan har doim jiddiy tusda aytiladi va tinglanadi. Lekin ba'zi hollarda maqollar **kinoya, piching, istehzo, zaharxanda** ma'nolarida ham ishlatilishi mumkin. Masalan, **“개구리 올챙이 적 생각 못 한다” (Qurbaqa balchiqda yashagan kunlarini unutdi)** – **“O'tgan kuningni unutma, xom chorig'ingni quritma”** maqolida muvaffaqiyat va shon-shuhratga erishib o'tmishini unutgan, kekkaygan kishilarga zaharxanda, **“되로 주고 말로 받는다” (Piyolada berib kosa bilan qaytarib oladi)** – **“Ol, desang, suyunar, Ber, desang, kuyunar”** maqolida esa xasis kishilarga nisbatan piching ma'nolari ifodalangan. ytib faollashishi mumkin.

Maqollar ham she'riy, ham nasriy shakllarda bo'lsa-da, na lirik, na epik turga kirmaydi. Maqollar tuzilishiga ko'ra, bir va bir necha sintaktik butunliklar asosida tashkil topgandir. Bir sintaktik butunlikdan iborat maqollar, odatda bir qismli maqollar

sanalib, ko‘pincha darak gap yo‘sinida bo‘ladi. Aynan shu tomonlari bilan o‘zbek va koreys xalq maqollari juda o‘xshashdir. Quyidagi maqollar orqali fikrimizni isbotlashga harakat qilamiz.

✓ **말보다는 실천을 하라 – Gap bilguncha ish bil.**

✓ **싼 게 비지떡이다 – Arzonning oshi tatimas.**

Ko‘p sintaktik butunlikdan iborat maqollar esa, ko‘p qismli yoki murakkab maqollar deb yuritiladi. Bunday maqollar bir-biriga o‘xshash yoki zid fikrlar bayonidan iborat bo‘ladi. Aksariyat maqollar ikki qismdan tashkil topgan bo‘lib, bir qismi tasviriy mohiyatga ega, ikkinchi qismi xulosadan iboratdir:

✓ **콩 심은 데 콩 나고 팥 심은 데 팥 난다 – Nimani eksang, shuni o‘rasan.**

✓ **눈에서 멀어지면 마음에서도 멀어진다 – Ko‘zdan yiroq, ko‘ngildan yiroq.**

✓ **집 안에 어린 아이가 없으면, 지구에 태양이 없는 거와 같다 – Bolali uy bozor, Bolasiz uy mozor.**

Maqollar o‘z va ko‘chma ma’nolarga ega bo‘lishi bilan yana ham diqqatga sazovordir. Masalan, “내 집 보다 좋은 곳은 없다” – “O‘z uyim o‘lan to‘shagim”, “어려울 때 도와주는 친구가 진짜 친구지” – “Do‘st kulfatda sinaladi”, “고생 끝에 낙이 온다” – “Azob ko‘rmay rohat yo‘q” kabi maqollar o‘z ma’nosida qo‘llaniladi. Ayrim maqollar esa faqat ko‘chma ma’noda qo‘llaniladi. “굿이나 보고 떡이나 먹다” – “Uzumini yegin-u bog‘ini so‘rama”, “낮말은 새가 듣고 밤말은 쥐가 듣는다” – “Devorning ham qulog‘i bor”, “아니 댄 굴뚝에 연기 날까” – “Shamol bo‘lmasa daraxtning uchi qimirlamaydi” kabi maqollar esa ko‘pincha ko‘chma ma’nolarda ishlatiladi. Koreys tilidagi maqollarni o‘rganish, bu janr namunalari mazmunan deyarli o‘zbek tilidagi maqollar bilan bir xil ekanligini ko‘rsatadi. Ammo bunday yaqinlikni bir xalq ikkinchi xalqdan maqolni o‘zlashtirganligi bilan izohlash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Bizningcha, bunday yaqinlikni oddiy turmush tarzining o‘xshashligi, insonlar hayotidagi munosabatlarning yaqinligi va, umuman, hayotning ko‘p holatlarida bir xil vaziyat hosil qilishi bilan izohlagan ma’qulroq bo‘ladi.

Umuman olganda, xalq og‘zaki ijodining muhim janri bo‘lgan maqollar xalqning asrlar davomida to‘plagan hayotiy tajribasi, donishmandligi va dunyoqarashini ifodalaydi. Maqol janri tuzilishi, shakli, mazmuni va qo‘llanish uslublari bilan o‘zbek va koreys tillarida juda ko‘p umumiyliklarga ega. Bu o‘xshashliklar xalqlarning hayot tarzidagi yaqinlik, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy tajribalarning uyg‘unligidan dalolat

beradi. Maqollarni solishtirish esa nafaqat ularning til va uslubiy jihatlarini, balki har ikki xalqning madaniy-ma'naviy tafakkurini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Shu bois maqollarni o'rganish bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan va o'zaro madaniy anglashuvda muhim vosita bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Axmedova U.K. Ingliz va o'zbek maqollarining lingvokulturologik va semantik xususiyatlari: Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya – Urganch, 2014. – 5 b.
2. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T.: Musiqqa, 2010. – 293 b.
3. Qo'shoqov M. So'z ko'rki maqol // Yosh Leninchi. – 1963. – № 55 (5872). – 4 b.
4. Vv Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – T.: O'qituvchi, 1990. – 93 b.